

# Cellular pathology. Dystrophies.

## Lecture-12. Disorders of chromoprotein metabolism.

Lecturer. Avazbek Mamataliyev Ro'zuvaevich., Docent, Candidatus  
Medicinae

### *Nazorat savollari*

#### Assignment

- 1. Kalsiy almashinuvini boshqarilishi endokrin bez garmonlariga bog'liqligini tushuntiring?*
- 2. Kalsinoz nima va qanday turlari bilasiz?*
- 3. Distrofik oxaklanishni tushuntiring?*
- 4. Vilson – Kanovalov kasallida mineral modda almashinuvining qaysi turi uchraydi?*

*Ansvers:*

*Javoblar:*

### **1. Kalsiy almashinuvini boshqarilishi endokrin bez garmonlariga bog'liqligini tushuntiring?**

$Ca^{+2}$  ni neyrogumoral yo'l bilan almashinuvi boshqariladi (qalqonsimon bezni gormoni kalsitonin - kalsiyni qondan to'qimaga, qalqonsimon oldi bezi gormoni paratgormon esa uni to'qimadan qonga o'tishini boshqaradi). Kalsiyni ovqat bilan kelib tushishi, so'rilishi va ekskresiyasi yo'g'on ichak, buyraklar, jigar (o't suyuqligi bilan) va ba'zi bir bezlar bilan boshqariladi. Paratgormon suyaklarda kalsiyni yuvilishini, qonda uni miqdorini ortishiga sabab bo'ladi.

### **2. Kalsinoz nima va qanday turlarini bilasiz?**

Kalsinoz – ohaklanish (oxakli distrofiya), bu – hujayra va oraliq to'qimada, mitoxondriy, lizosoma, glikozaminglikan, kollagen va elastik tolalarda kalsiy tuzlarining cho'kma bo'lib to'planishi hisoblanadi. Jarayonni tarqalishiga qarab tarqoq (sistemali) va maxalliy bo'ladi. Kalsinoz umumiy va maxalliy omillar

ta'sirida rivojlanish mexanizmi bo'yicha 3-xil: metasatik, distrofik va metabolik (kalsergiya xodisasi) tarzda uchraydi.

### **3. Distrofik oxaklanishni tushuntiring?**

Distrofik oxaklanish ko'pincha mahalliy bo'lib, sabablari: to'qimalarni chuqur distrofiyasi va nekrozidir (o'lgan to'qimaning fizik-kimyoviy tarkibini o'zgarishi, fosfatazani ko'p ajralishi va qondan kalsiyni absorbsiyalanishi). Distrofik kalsinozda to'qimada har xil kattalikdagi oxaklanishlar (petrifikatlar) paydo bo'ladi, ba'zida suyaklanishgacha etishi mumkin.

### **4. Vilson – Kanovalov kasalligida mineral modda almashinuvining qaysi turi uchraydi?**

Vilson – Kanovalov kasalligida mis birikmalari jigarda, miya to'qimasida, ko'zni shox pardasida (shox pardani chekka qismidagi zangori-qo'ng'ir halqa – Kayzer – Fleysler halqasi), me'da osi bezida, moyak, tuxumdonlar va b. to'planadi. Jigar sirrozi va bosh miya tuzilmalarida distrofik o'zgarishlar parallel rivojlanadi. Qon plazmasida misni miqdori kamaygan, siydikda esa ortganligi kuzatiladi.

### *Test savollari*

#### **1. Quyidagi kasalliklardan qaysilari jigar osti sariqligiga olib keladi?**

- a. virusli gepatit
- b. o't tosh kasalligi**
- c. umumiy gemosideroz
- d. tug'ma porfiriya

#### **2. Qaysi kasallikda gipokaliemiya rivojlanadi?**

- a. Davriy falajlik
- b. Addison kasalligi
- c. Vilson-Konovalov kasalligi**

d. Goshe kasalligi

**3. Qaysi a'zolarida kalsiy to'planadi?**

a. qalqonsimon bezda

**b. suyakda**

c. buyrakda

d. jigarda

**4. Metastatik oxaklanishda, qondagi kalsiyning darajasi qanday?**

a. o'zgarmagan

b. kamaygan

**c. ko'paygan**

d. kamayib ko'payib turadi

**5. Metastatik oxaklanish mexanizmini aytib bering?**

**a. qonda kalsiy miqdorining kamayishi**

b. nekrozlangan tukimalrada kalsiy tuzlarining tuplanishi

c. qondagi kalsiy miqdorining oshishi

d. kalsiyning skleroz o'chog'ida to'planishi

**6. Kazeoz nekrozning eng ko'p uchraydigan oqibatini ayting?**

**a. oxaklanish**

b. gialinoz

c. denaturasiyalanish

d. kista xosil bo'lishi

**7. Metabolitik oxaklanishda qondagi kalsiy miqdori qanday bo'ladi?**

**a. o'zgarmagan**

b. kamaygan

- c. ko'paygan
- d. siljiydi

**8. Metastatik oxaklanishning mumkin qadar sababi bo'lib xisoblanadi?**

- a. gipokalsiemiya
- b. metabolizmning lokal buzilishlari (nekroz)
- c. kalsefilaksiya
- d. giperkalsiemiya**

**9. Asosida mis almashinuvining buzilishi kasallikni belgilang:**

- a. tosh kasalligi
- b. Vilson-Konovalov kasalligi**
- c. gemoxromatoz
- d. Girke kasalligi

**10. Jigar osti sariqligining sabablari:**

- a. o't tosh kasaligi**
- b. gepatit
- c. jigar sirrozi
- d. gepatoz

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	C	B	C	A	A	A	D	B	A